

• Ijarachi qarzni vaqtida to'lay olmagan hollarda, kechiktirilgan pul xayriya tashkilotiga o'tkaziladi.

Islom banki foiz(arabcha– “ribah”)ni taqiqlaydi. Bu borada bank tizimi o'z faoliyat qoidalarini ishlab chiqqan. Islom banking ish yuritish tizimi oldi-sotdi va investitsiya kiritish hisoblanadi. Shu o'rinda qanday uslubda degan savol paydo bo'ladi?

Murobaha(arabcha- Murabaha)-bank siz sotib olish uchun olayotgan kredit o'rniga mahsulotni sotib oladi va sizga tegishli muddatda to'lash sharti bilan sotadi. Bu usul asosan tashqi savdoni moliyalashtirish uchun ishlatiladi. Importni moliyalashtirish holatida moliyalashtirish davri 30 oy, eksportni moliyalashtirish davrida esa 120 oygacha bo'lishi mumkin. Bu shartnoma turi O'zbekiston sharoitida juda qo'l keladi. Xalqimiz avtomobil sotib olish uchun ko'p yillar ishlashiga to'g'ri keladi, buning o'rniga islom banki yordamidan foydalansak bo'ladi. Bank iste'molchi uchun avtomobilni sotib olib beradi va iste'molchi avtomobildan foydalanib qarzdorlikni yopadi.

Ijara(arabcha- ijarah)- bu bir servis yoki mahsulotni(mashina, asbob-uskuna, kemasozlik va boshqalar) aniq muddatga foydalanishga berish, bu muddat davomida foydalanuvchi belgilangan miqdorni to'lab turadi. Ijara 2 turga bo'linadi: mahsulotni faqat foydalanish sharti bilan ijaraga olasiz yoki mulk uchun ham xaq to'lab shu muddat oralig'ida sotib olishingiz ham mumkin. Bunday turdagi shartnoma tuzishning bir nechta qoidalari bor: 1. Bu shartnomaning shartlari oldindan to'laligicha kelisgib olingan bo'lishi shart, 2. Mahsulotning puldagi ifodasi ya'ni qiymati bo'lishi kerak( misol-uy), 3. Mahsulotning egalik huquqi to'liqligicha sotuvchida qoladi, shu sababli unga zarar yetkazish taqiqlanadi. Bu xizmatdan yangi ochilgan korxonalar foydalansa ko'proq foyda oladi, chunki bu kredit korxonaning logistika tizimini rivojlantirish uchun bir yo'l hisoblanadi.

Mushoraka(arabcha-mushorakah)-shariklik ishi: bunda bir nechta odamlar jamoasi kelishilgan holda biznes yuritish uchun sarmoya kiritadi. Musharakah bu munosabatlarni qonuniylashtiruvchi shartnoma. Bu shartnomaga ko'ra foyda ham zarar ham sheriklar o'rtasida bo'linadi. Bu shartnoma biznesda eng ko'p qo'llaniladigan shartnoma hisoblanadi. Sheriklar ishni boshlash uchun sarmoya kiritiladi va shartnomani shartlari kelishiladi. Bunday xolda biznes bankrot xolatiga tushsa tikilgan pullar zarar hisobida boladi. Aynan shunday holatda mushoraka bankdan sarmoya kiritilishini istagan insonga yordam qo'lini cho'zadi va shartnomada ko'rsatilgan insonlardan korsatilgan miqdorda zararni undirishga sizga tayanch vazifasini o'taydi.

Mudoraba- shariklik ishi: bunda investor bir loyihani sarmoyalashtiradi. Lekin loyihaga aralashmaydi, zarar ko'rilsa bu sarmoyadorning bo'ynida bo'ladi. Agar bu holat Mudorib(loyihachi)ning xatosi bilan yuzaga kelsa, Mudoribning obro'siga putur yetadi va keyingi ishlarga sherik qilinmaydi. Shartnomada yana bir band borki, agar loyiha zarari Mudoribning xatosi bilan bo'lsa, u holda zararni qoplaydi. Bu turdagi shartnomada xalqimiz keng miqyosda foydalanadi. Misol uchun dehqonlar yerga ishlov berishni istashmasa,

buning uchun ijarachi topishadi va dehqon moliyaviy tarafini o'z bo'yniga oladi, ijarachi esa mehnat uchun javobgar hisoblanadi.

Salom- oldindan to'lov: pul to'laligicha oldindan to'lanadi va mahsulot yetkazib beriladi. Bu holatga oldindan buyurtma berishni misol qilib olsak boladi, mahsulotning yetkazib berishning aniq vaqti esa ishlab chiqaruvchi yoki yetkazib beruvchi bilan oldindan kelishilgan bo'ladi. Salom shartnomasi ikki bosqichda Imzolanadi:

1. Avval Islom moliyaviy instituti mahsulotni sotib oladi

2. Bu bosqichda institut sotuvchi ro'lida bo'ladi ya'niki bank mahsulotning sifati va yetkazib berilishini o'z bo'yniga oladi.

Istisno- yakuniga yetmagan loyihani moliyalashtirish, ya'niki sarmoyador jarayon davomida loyiha ishdan to'xtasa yetishmovchilik tufayli, shu buyumni yetkazib berishi talab etiladi. Bu yo'sindagi shartnomadan juda kam hollarda foydalaniladi.

Vakala- boshqalar nomidan ish ko'rish: shartnomaga ko'ra sheriklardan biri o'z vakolatlarini boshqa bировга beradi. Hozirgi vaqtda bu nomga menejer lavozimi ko'proq mos keladi, ikkisi ham boshliqlar nomidan kompaniya, korxonalar va boshqa istalgan muassasa yoki biznesni yuritish hisoblanadi.

Sukuk- aktivlarga egalik qilishning foizdagi ko'rinishi. Uning obligatsiyadan farqi sukukdan olinadigan daromad kelajakda kelmaydi. Sukuk aktivlarga egalik qilishning bevosita usuli, obligatsiyalar esa bilvosita foizli qarz majburiyatlarib hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, sukuk moddiy aktivdagi egalik ulushini aks ettiradi. Sukuk egalari obligatsiyadan farqli o'laroq qarzdorlik majburiyatini yuklamaydi va tegishli aktiv tomonidan ishlab chiqarilgan daromadning bir qismini oladi. Sukukning eng ko'p tarqalgan turi "Ishonchli Guvohnoma"lar hisoblanadi. Ishonchli guvohnoma o'zi nima? Bu sertifikat mablag'larni jalb qiluvchi tashkilotlar tomonidan tuziladi va investorlarga beriladi. So'ng investitsiyadan tushgan mablag'lar tashkilot tomonidan moliyalashtirish shartnomasiga kiritiladi, evaziga esa sarmoyadorlar foydaning aktiv bilan bog'langan qismini ishlab oladi.

Takaful- sug'urtalash: a'zolar bir-birlarini yoki mahsulotlarini yo'qotmaslik maqsadida pul mablag'lari tizimi(takaful)ga pul qo'shadilar. Bu islom taraqqiyot bankining sug'urta tizimi hisoblanadi. Bu tizimning o'ziga xos bir nechta prinsiplari bor.

☑Har bir sug'urta egasi yordamga muhtoj insonlarga yordam berish uchun badalning bir qismini xayriya sifatida to'lab beradi.

☑Yo'qotishlar bo'linadi va majburiyatlar jamoalarga taqsimlanadi.

☑Sug'urta egasi boshqalarning evaziga foyda olishga intilmaydi.

☑Sug'urta egalari umumiy manfaat uchun o'zaro hamkorlik qiladilar.

Islom bankining tavakkalchilikni tekshiruv tizimi ham yaxshi darajada rivojlangan. Bu shartnomalar imzolanishidan avval tavakkalchiligi yaxshilab o'rganiladi. Bu 6 bosqichda amalga oshadi.

1.Kredit tavakkalchiligi

2.Sheriklikka kirishdan kelib chiqadigan tavakkalchilik

3.Bozor tavakkalchiligi

4.Majburiyatlarni bajara olish tavakkalchiligi

5.Pulni qaytara olish tavakkalchiligi

6.Xatolar va muvoffaqiyatsizliklar tavakkalchiligi


Bu tizim vaziyatni turli jabhalarini o`rganib chiqib, shartnoma imzolaydi. Bank bilan iste`molchi o`rtasida tuzilgan shartnomalar kuchga kiradi va tomonlar o`z vazifalarini bajarishga kirishadi. Islom taraqqiyot banki kirib kelgan davlatlar iqtisodiyotida yuksalish yuz beradi. Bu holatga Buyuk Britaniya yaqqol misol bo`la oladi. Yevropada birinchi bo`lib Buyuk Britaniyada 2004 yil "Britaniya Islomiy Bank"(IBB) ochilgan. Shu yilning o`zida 5 oy faoliyat yuritgan va 51mln \$ sarmoya kiritishga ulgurgan. Bu miqdor yildan-yilga ko`payib, 2005-yilda 89 mln \$, 2006-yilda 118 mln \$ ga yetgan.

	2004	2005	2006	2007
Vakala va Murobaha aktivlari	47,022,681	78,037,676	100,286,964	141,768,471
Mulk va texnika aktivlari	3,547,073	3,798,951	3,965,370	3,443,355
Boshqa aktivlar	434,272	7,452,873	13,759,761	19,725,001
To`liq aktivlar	51,004,026	89,289,500	118,012,095	164,936,827

Aktivlar- bu bank faoliyatini kundalik hayotida ishlatiladigan oldi-sotdi kredit yoki boshqa turda ishlatiladigan pul summalari hisoblanadi. Bunga kassadagi va hisobvaraqlaridagi naqdpullar kiradi.


Solishtirish uchun:

Total Assets



Bu Al Rayan(Britaniya Islom Banki)ning 2015 -2019 yillardagi umumiy aktivlari, grafikdan ko`rinib turibdiki, bank yildan- yilga faqat o`shishga erishgan. Ayniqsa, 2016, 2017, 2019- yillarda o`shish foizi sezilarli darajaga yetib ulgurgan. Birgina

2019- yilda 14 % lik o'zish bankda qanchalik darajada istiqbolli ish olib borayotganini ko'rsatadi.



Bu grafik akitvlarni oshib borishini ifodalaydi. 2004- yilda faoliyatini boshlagan IBB 2007- yilga borib o'z aktivlarini ancha yaxshilab olgan.

Iqtisodiy turg'un bo'lishni istagan Buyuk Britaniya davlati o'z faoliyatini islom banki bilan bog'lay bildi. Va hozirgi vaqtda davlatda 14 ta islomiy banklar bor. Islom bankinning davlat iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotiga qo'shadigan ulushi katta. Ijtimoiy hayotni buzuvchi odatlarni qoralaydi va investitsiya kiritmaydi. Shariatda xarom etib belgilangan odatlar bilan aloqaga kirishmaydi, hattoki davlatda qonuniy ruxsat berilgan bo'lsa ham.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.islamic-banking.com/explore/islamic-finance/shariah-rulings/question-answers-shariah-rulings/murabaha>
2. "Buyuk Britaniyadagi islomiy banklar" maqolasi 8-10- betlar
3. <https://www.qardus.com/news/the-islamic-financial-services-industry-statistics>
4. "Buyuk Britaniyadagi islomiy banklar" maqolasi 13-20- betlar
5. <https://www.investopedia.com/terms/m/musharakah.asp>
6. Wes Mountain "Comic explainer: how does Islamic finance work" maqolasi
7. <https://www.islamic-banking.com/explore/islamic-finance/shariah-rulings/question-answers-shariah-rulings/mudarabah>
8. Mamiza Haq , Queensland universiteti  
" Is Islamic banking is more risky compared to conventional banking" maqolasi
9. <https://www.islamic-banking.com/explore/islamic-finance/islamic-insurance-takaful>
10. Jikon Lai, Melbourn universiteti  
"Can Islamic finance provide salvation for the banking sector" maqolasi

## ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIK DARSLARIDA O'QUVCHILARNING OG'ZAKI VA YOZMA NUTQLARINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY METODLAR

**Mo'minova Muslima Alisher qizi**

*Namangan Davlat pedagogika instituti magistri*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada ona tili va o'qish savodxonligi fanidan sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilar nutqini o'stirishning zamonaviy usullaridan namunalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *nutq o'stirish, "Lahzalik savol-javob" metodi, "Aniq ma'lumot" usuli, "Tasvirlar" usuli.*

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish uch yo'nalishda olib boriladi. So'z ustida ishlash, so'z birikmasi va gap ustida ishlash, bog'lanishli nutq ustida ishlash orqali amalga oshiriladi. O'quvchilarning nutqini ravon o'stirish nafaqat dars jarayonida balki sinfdan tashqari o'qish darslarida ham izchillik bilan olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Sinfdan tashqari o'qish darslari bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, ularning bo'g'lanishli nutqini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish uchun har xil metodlar va vositalar orqali olib borilishi kerak.

O'quvchilarining bog'lanishli nutqini o'stirish borasida 1-sinf o'quvchilari bilan quyidagi ishlarni olib bordim. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish bo'yicha amaliyotda qo'llangan va samara bergan usullardan na'munalar. 1-usul: "Lahzalik savol-javob" metodi. Bunda ixtiyoriy bir so'zni olinib masalan "Matematika" so'zi va doskaga katta harflarda yoziladi. O'quvchilarga go'yoki topshmoq tarzida savollar beriladi.

1. Asosan raqamlar va to'rt amallar ishtirok etadigan fan?

Javob: matematika

2. Asalni hush ko'ruvchi hayvon?

Javob: ayiq

2. Mevasining nomi uzum deb ataluvchi daraxt nomi?

Javob: tok daraxti

3. Un elanadigan oshxona buyumi?

Javob: elak

4. Quyosh sistemasidagi yerdan keyingi turadigan sayyorani nomi?

Javob: Mars

5. Otaning opasi yoki singlisi nima deb chaqiriladi?

Javob: amma

6. Kiyim-kechaklar tikadigan hunar egasi kim deb ataladi?

Javob: tikuvchi

8. Sudralib yuruvchi hayvon?

Javob: ilon

9. Dehqonlar hosillarini yig'adigan fasl?